

Oldinda bahor hamda “Yorqin payshanba”

2024 28 Fevral

Qishning oxiri, 2024-yil 29-fevral kuni “Yorqin payshanba” aksiyasi doirasida Toshkentdan Anqara, Mumbay va ortga, Farg‘onadan Dubayga, Ufaga va ortga, Nukusdan Moskvaga va ortga, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch, Farg‘onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi yo‘nalishlar bo‘yicha e‘lon qilingan jadval tugagunga qadar barcha parvozlar tariflariga 20% chegirma e‘lon qilamiz.

Aksiya bir kun davomida – soat 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi. Aviachiptalarni www.uzairways.com sayti, mobil ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishga shoshiling.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2024-yil 29-fevral soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
 - kattalar uchun tarifdan – 20%;
 - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 20%;
 - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig‘imlarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 29.02.2024da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo‘llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya‘ni chegirma qo‘llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo‘llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e‘lon qilingan

berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Anqara, Mumbay va ortga, Farg'onadan Dubayga, Ufaga va orqaga, Nukusdan Moskvaga va ortga, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Urganch, Farg'onadan Istanbulga va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

Chegirmali aviachiptalarni rasmiy saytda, aviakompaniya agentlari va Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilishingiz mumkin.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.